



THE ISSUE OF EXPRESSING AND ANALYZING PERSONAL FRAMES IN METAPHORS

Aziza Muhiddin qizi Yusupova

Doctoral (PhD) student
Alisher Navoi Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
azizaxonyusupova1996@gmail.com
[ORCID: 0000-0002-8559-5861](https://orcid.org/0000-0002-8559-5861)
<https://doi.org/10.36078/1778830246>

Abstract. Metaphors shape a particular perspective in interpreting the world and function as cognitive frames in the process of evaluating judgments and arguments. In this sense, emotions may appear as phenomena distinct from rational thinking; however, they can also be regarded as cognitive formative processes that exert a meaningful influence on human thought and behavior. Cognitive linguistics interprets metaphor as one of the key mechanisms of human cognition. The study of metaphor reveals the intrinsic connection between human experience and language, provides an important methodological basis for analyzing cultural cognition, and enables the exploration of the cognitive content of figurative expression in literature and poetry. Therefore, investigating metaphor in Uzbek poetry from a cognitive perspective not only deepens literary analysis but also helps identify national modes of thinking and conceptual worldviews. A personal frame is understood as a system of knowledge about a person, that is, a conceptual structure encompassing external appearance, psychological state, character, emotions, social status, and other attributes. In the metaphorical process, it is precisely the components of this frame that are mapped onto other conceptual domains. It should be emphasized that metaphors based on the personal frame are theoretically closely related to conceptual metaphor theory, frame semantics, conceptual integration, and the anthropocentric paradigm. These approaches place the human being at the center of the process of world perception and demonstrate the universality of the human concept in language. Therefore, such metaphors should be regarded not merely as aesthetic devices, but as significant cognitive mechanisms that reflect the conceptual structure of human thought.

Keywords: metaphor; personal frame; frame analysis; cognitive analysis; cognitive mechanism.

SHAXS FREYMNING METAFORALARDA IFODALANISHI VA TAHLIL QILISH MASALASI

Yusupova Aziza Muhiddin qizi

Doktorant (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Metaforalar dunyoni talqin etishda muayyan nuqtayi nazarni shakllantirib, mulohaza va dalillarni baholash jarayonida kognitiv freym vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, his-tuyg'ular ratsional tafakkurdan farqlanuvchi hodisalar sifatida namoyon bo'lishi mumkin, biroq ular inson fikrlashi va xatti-harakatlariga mazmunli ta'sir ko'rsatuvchi kognitiv shakllanish jarayonlari sifatida ham talqin etiladi. Kognitiv tilshunoslik metaforani fikrlash mexanizmi sifatida talqin etadi. Uning o'rganilishi inson tajribasi va tili o'rtasidagi aloqani tushuntirishga yordam beradi, shuningdek, madaniy tafakkurni tahlil qilish uchun metodologik asos yaratadi hamda adabiyot va she'riyatdagi obrazli ifodaning kognitiv mazmunini ochishga imkon beradi. Shu sababli, o'zbek she'riyatida metaforani kognitiv nuqtayi nazardan o'rganish nafaqat badiiy tahlilni chuqurlashtiradi, balki milliy tafakkur va konseptual dunyoqarashni aniqlashga ham xizmat qiladi. Shaxs freymi deganda inson haqidagi bilimlar tizimi, ya'ni tashqi ko'rinish, ruhiy holat, xarakter, hissiyot, ijtimoiy mavqe va boshqa atributlar majmuyi tushuniladi. Metafora jarayonida aynan shu freymdagi komponentlar boshqa konseptual sohalarga ko'chiriladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxs freymi asosidagi metaforalar nazariy jihatdan kognitiv metafora nazariyasi, freym semantikasi, konseptual integratsiya hamda antroposentrik paradigma bilan uzviy bog'liqdir. Ular insonni dunyoni idrok etish jarayonining markaziga qo'yadi va tilda inson konseptining universalligini namoyon etadi. Shu bois bunday metaforalar faqat estetik vosita emas, balki inson tafakkurining konseptual tuzilmasini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metafora; shaxs freymi; freym tahlil; kognitiv tahlil; kognitiv mexanizm.

Kirish

Kognitologiya yo'nalishda konsept va freym tushunchalari inson tafakkurining asosiy kognitiv birliklari sifatida tahlil qilinadi. Har ikkisi ham insonning tajribasi, dunyo haqidagi bilimlari hamda ularni til orqali ifodalash jarayonini modellashtiruvchi kognitiv strukturalardan hisoblanadi. Konsept tushunchasi tilshunoslikda XX asrlarda paydo bo'la boshladi. Bu haqda V. Demyankov shunday fikr bildiradi: "Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli definityalarga ega termin konsept hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro bog'lanadi" [Demyankov 2007: 606].

Freym tushunchasini esa fanga birinchi bo‘lib, 1974-yilda amerikalik olim Marvin Minskiy olib kirdi. Bunda harakatlarning diagrammasi bo‘lgan sun‘iy intellektidagi bilimlarni namoyish etish usuli sifatida tavsiflanadi. M.Minskiy tomonidan fazoviy manzaralarni idrok etish uchun bilimlarning tuzilishiga murojaat qilingan. Olim unga shunday ta‘rif beradi: “Freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, harqanday freymda ko‘p qirrali axborot o‘zaro bog‘langan bo‘ladi”. [Minskiy 1979:53] “Freym” tushunchasini tilshunoslikka dastlab Ch. Fillmor tatbiq etdi. Biroq oldingi tajribaning yangi axborotni qabul qilish va idrok etishdagi rolini maxsus o‘rgangan psixolog F.Bartlett ushbu faoliyat “bilishning stereotip namunalari hamda ma‘lum ijtimoiy guruh uchun xos bo‘lgan normalar (me‘yorlar)” [Velichkovskiy 1982: 42] zamirida kechishini ta‘kidlagan.

Freym semantikasi so‘z ma‘nolariga qarashning o‘ziga xos usulini, shuningdek, yangi so‘z va iboralarni yaratish, so‘zlarga yangi ma‘nolar qo‘shish va matndagi elementlarning ma‘nolarini matnning umumiy ma‘nosiga yig‘ish tamoyillarini tavsiflash usulini taklif qiladi [Fillmor 1982: 112]. Tilshunos olimlarning qayd qilishishicha, “freym” so‘zini tabiiy tilni tushunish bo‘yicha adabiyotlarda “sxema”, “script”, “ssenariy”, “g‘oyaviy iskala”, “kognitiv model” yoki “xalq nazariyasi” kabi turlicha ma‘lum bo‘lgan tushunchalar to‘plami uchun umumiy qo‘shimcha atama bo‘lishi kerak edi. Shu sohaning yana bir yetuk tadqiqotchilaridan biri D. U. Ashurova ta‘kidlaganidek, ba‘zi farqlarga qaramay, bu atamalarning barchasi bilim alohida faktlar yig‘indisi emas, balki murakkab iyerarxik tizim, axborotni taqdim etishning kognitiv modeli degan fikrni bildiradi. Til tuzilmalari va ularning aqliy modellari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish freym tahlili deb ataladi [Ashurova 2012: 106].

“Freym”ning umumiy tushunchasi keng ma‘noda hodisalarni kontekstga solish yoki joylashtirishni o‘z ichiga oladi; lingvistik semantika esa avvaldan o‘rnatilgan va berilgan leksik birliklar yoki grammatik kategoriyalar bilan maxsus bog‘langan ramka qoliplari bilan bog‘liq [Fillmor 1982: 130]. “Freym, ssenariylar, skriptlar va boshqa aqliy tuzilmalar lingvistik birliklarning ma‘nosini shakllantirishda ishtirok etadigan ensiklopedik bilimlarni tashkil etish shakllarini ifodalaydi” [Kubryakova 2004: 124].

“Lingvokognitologiyaga ko‘ra, har qanday matn ma‘lum bir freym ifodasidir” [Maslova 2001: 40].

“Freym — tipik vaziyat va uning ishtirokchilari haqidagi ma‘lumotni o‘z ichiga olgan bilim strukturasi” [Kubryakova 2004: 93].

A. E. Mamatovning “Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?” nomli maqolasida: “Freym — predmet yoki hodisa to‘g‘risidagi standart bilimlarning yig‘indisini namoyon etuvchi ko‘p komponentli konseptdir. Freym bilimning shunday strukturasi bo‘lib xizmat qiladiki, u yoki boshqa bir konsept bilan bog‘liq bo‘lgan tipik va potensial jihatdan ehtimol qilingan asosiy axborotni o‘zida mujassam etadi. Ular zaruriyat yuzasidan xotirada saqlanayotgan komponentlardan tashkil topadi” [Mamatov 2019: 10] degan fikrlarni aytib o‘tadi.

M. M. Jo‘rayeva freymga quyidagicha ta‘rif beradi: “Albatta, ular har bir insonning kognitiv xususiyatini rivojlantirish jarayonida tasodifan (birdan) paydo bo‘ladi. Boshqa freymlar tajriba yoki o‘rgatishdan o‘zlashtirib oladilar, vaholanki, ular tillar ifodalanishi bilan uzviy bog‘liq”. [Jo‘rayeva 2016: 47]. Kognitiv tilshunoslikning o‘rganish obyekti inson egallagan bilim va tajriba hisoblanishi bilan qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, shu egallangan bilimlarni ma‘lum bir qolip hamda sxemaga solishinishi-yu, o‘ziga xos assotsiativ maydonlarni hosil qilishi bilan freym hamda slotlar ham shunchalik ahamiyatlidir [Jo‘rayeva 2023: 106].

Kognitiv lingvistika doirasida freym semantikasi o‘zaro bog‘langan har qanday tushunchalar tizimini anglatadi, shuning uchun ulardan birini tushunish uchun ushbu tushuncha tarkibiy qismi bo‘lgan tizimning to‘liq tuzilishini tushunish kerak. Shunday qilib, leksik elementlarning ma‘nosi shunday tartibga solinadiki, matn yoki suhbatda biror narsa ishlatilsa, ushbu element bilan bog‘liq bo‘lgan turli qiymatlar faollashadi. Fillmor uchun freym so‘zning ma‘nosini tuzuvchi va o‘z navbatida so‘z freymini uyg‘otuvchi tushunchadir.

Freym haqida tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Bir qator tilshunoslar freymni faqatgina sintaktik gap tarkibidagi yagona predikat sifatida qabul qilsalar, yana bir guruh olimlar freymlar subfreym (kichik freymlar)dan tashkil topgan, voqelik haqidagi umumiy bilimlarni o‘zida jamlagan hodisa sifatida qabul qiladilar [Jo‘rayeva 2023: 107]

Kognitiv semantikada dunyo haqidagi bilimlar so‘zning turli ma‘nolarini faollashtiradigan umumiy domenlar deb ataladigan bilim tuzilmalari bilan tavsiflanadi. Fillmor domenga ishora qilish uchun freym semantikasi atamasidan foydalanadi [Fillmor 1982: 117].

Kognitiv-semantik yondashuv doirasida, xususan, Lakoff va Jonson hamda Fillmorning konseptual metafora va freym semantikasi nazariyalari, shuningdek, L. Talmy [Talmy 2000], S.Koeva [Koeva 2024], Z. Kövecses [Kövecses 2002]larning kognitiv yondashuvlari asosida metaforik modelning manba domeniga ko‘ra turlari quyidagicha ajratildi:

- Shaxs freymi asosidagi metaforalar (antropologik domen);
- Zoonim freymi asosidagi metaforalar (biologik domen);
- Abstraksiya asosidagi metaforalar (psixologik, aksiologik domen);
- Tabiat hodisalari asosidagi metaforalar (fizik domen).

Bu esa inson tajribasining qaysidir sohasi metaforik ko‘chish uchun asos bo‘layotganligini bildiradi. Yuqoridagi metafora turlarini kognitiv-semantik tahlil qilishdan asosiy maqsad metaforalarning inson tafakkuri va til tizimidagi ma‘no shakllanish jarayonini aniqlash, ya‘ni inson ongida tushunchalar qanday modellashtirilishi va til orqali qanday ifodalanishini ochib berishdir. Bu jarayonda metafora til hodisasi sifatida emas, balki *tafakkur modeli* sifatida tahlil qilinadi.

Leksik elementning semantik doirasida uning barcha semantik assotsiatsiyalari, ya‘ni uning ko‘p ma‘noli qiymatlari, leksik hosilalari, sintaktik va semantik valentligi, metaforik ma‘nolari va boshqalar kiradi. Bu tushuncha strukturaviy munosabatni bildirmaydi (giponimiya, antonimiya, sinonimiya, boshqalar qatori tajribaga asoslangan munosabatlar) [Fillmor 1982: 113]. Masalan, “tulki” so‘zi asosida “ayyorlik”, “makkorlik”, “aql”, “hiyla”, “yumshoqlik”, “moslashuvchanlik” tushunchalari uyg‘otuvchi freym semantika tushunchasiga misol bo‘lsa, “Tulki yuragi” — qo‘rqoq, “tulki kabi ayyor” — makkor, “tulki bolasi” — hiylakor kabi birikmalar esa bu konseptning semantik doirasini tashkil etuvchi kontekstga tegishli ekanligini anglatadi.

Yuqoridagi fikrlardan shu aniq bo‘ldiki, kognitiv tilshunoslik metaforani fikrlash mexanizmi sifatida talqin etadi. Uning o‘rganilishi inson tajribasi va til o‘rtasidagi aloqani tushuntirishga yordam beradi, shuningdek, madaniy tafakkurni tahlil qilish uchun metodologik asos yaratadi hamda adabiyot va she‘riyatdagi obrazli ifodaning kognitiv mazmunini ochishga imkon beradi. Shu sababli, o‘zbek she‘riyatida metaforani kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish nafaqat badiiy tahlilni chuqurlashtiradi, balki milliy tafakkur va konseptual dunyoqarashni aniqlashga ham xizmat qiladi.

Maqolada shaxs freymi asosidagi metaforalar tahlili amalga oshirildi.

Metafora masalasi kognitiv tilshunoslikning markaziy muammolaridan biridir. Ayniqsa, inson konsepti asosida shakllangan metaforalar, ya‘ni shaxs freymi asosidagi metaforalar tildagi antropotsentrik yondashuvni ifodalaydi. Ushbu metaforalar insonning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va madaniy tajribasi asosida boshqa konseptual sohalarni tushunish va talqin etish imkonini beradi.

Shaxs freymi asosidagi metaforalar kognitiv metafora nazariyasiga tayanadi. J. Lakoff va M. Jonson metaforani til birliklari orqali emas, balki inson tafakkuridagi konseptual tuzilma sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, metafora insonning dunyoni idrok etish va tushunish vositasi bo‘lib, konseptual tizim asosida ishlaydi [Lakoff & Johnson 1980: 111].

Masalan, “u temir irodali inson” ifodasida insonning ruhiy holati “metall” domeni orqali anglanadi. Bu yerda “inson” konsepti — asosiy freym, “metall” esa ko‘chirilgan konseptual sohadir. Yoki “vaqt hamma yaralarni davolaydi” ifodasida “vaqt” konsepti — asosiy freym, “shifokor/davolash” esa ko‘chirilgan konseptual soha bo‘lib, metafora “vaqt shifokor” konseptual modeli asosida inson tajribasining boshqa sohalarga proyeksiyasi sifatida vujudga keladi.

Freym semantikasi va shaxs freymi tushunchasi asosidagi metaforalarni izohlashda Ch.Fillmor tomonidan ishlab chiqilgan freym semantikasi nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Fillmor fikriga ko‘ra, freym — inson ongida muayyan tajriba sohasi bilan bog‘liq bilimlar majmuyi bo‘lib, har bir so‘z yoki tushuncha shu freymdagi elementlarga tayangan holda ma’no kasb etadi [Fillmor 1982: 137].

Shaxs freymi deganda inson haqidagi bilimlar tizimi ya’ni tashqi ko‘rinish, ruhiy holat, xarakter, hissiyot, ijtimoiy mavqe va boshqa atributlar majmuyi tushuniladi. Metafora jarayonida aynan shu freymdagi komponentlar boshqa konseptual sohalarga ko‘chiriladi. Masalan, “hayot – sahna” metaforasida insonning “aktyorlik” tajribasi (shaxs freymi elementi) “hayot” konseptual sohasi bilan integratsiyalashgan.

Shuningdek, shaxs freymi asosidagi metaforalarni chuqurroq tushunish uchun G. Fauconnier va M. Turnerning konseptual integratsiya nazariyasi muhim hisoblanadi. Unga ko‘ra, metafora ikki yoki undan ortiq konseptual sohaning birikishidan (blend) hosil bo‘ladi. Bu birikmada shaxs freymi odatda asosiy konseptual manba sifatida ishlaydi. Masalan, “kompyuter mendan xafa bo‘ldi” degan ifodada texnik obyektga insoniy hissiyot yuklanadi, bunda shaxs freymi (hissiyot, xafa bo‘lish) texnika domeniga o‘tkazilgan [Turner 2002: 68].

Shaxs freymi asosidagi metaforalar antropotsentrik paradigma doirasida ham izohlanadi. Tilshunoslikda antropotsentrizmga ko‘ra inson dunyoni o‘z markazidan turib idrok etadi, til va tafakkurda inson tajribasi mezon sifatida namoyon bo‘ladi. E. S. Kubryakova [Kubryakova 2004: 203] va N. N. Boldirev [Boldirev 2004: 102] tilning barcha semantik jarayonlar inson faoliyati bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar. Shu bois shaxs freymi

asosidagi metaforalar insonning o'zini boshqa narsalar orqali tushunish mexanizmini ifodalaydi.

O'zbek tilshunosligida ham inson konsepti asosidagi metaforalar keng o'rganilmoqda. Xususan, Sh. Mahmaraimova [Mahmaraimova 2020: 59]ning tadqiqoti o'zbek tilidagi metaforalarning antropotsentrik, kognitiv va lingvomadaniy yo'nalishlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda metaforaning inson konsepti, madaniyat, mental model va dunyoqarash bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Shuningdek, Sh. Ulugova ishida "inson" konsepti metafora faollashuvini tushunishning markaziy elementi sifatida qaraladi: metafora qahramonning subjektiv tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy identiteti bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni metafora bu yerda faqat stilistik vosita emas, u qahramonning ichki dunyosi va jamiyat bilan munosabatini (gender pozitsiyasini ham) ko'rsatadigan kognitiv-stilistik mexanizm sifatida tahlil qilinadi [Ulug'ova 2022: 147].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxs freymi asosidagi metaforalar nazariy jihatdan kognitiv metafora nazariyasi, freym semantikasi, konseptual integratsiya hamda antropotsentrik paradigma bilan uzviy bog'liq. Ular insonni dunyoni idrok etish jarayonining markaziga qo'yadi va tilda inson konseptining universalligini namoyon etadi. Shu bois bunday metaforalar faqat estetik vosita emas, balki inson tafakkurining konseptual tuzilmasini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm hisoblanadi.

O'zbek she'riyatidagi metaforalarni kognitiv-semantik tahlil qilishda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1. Tahlil qilinayotgan metafora turi manbadan aniq belgilanadi (shaxs freymi asosidagi, zoonim freymi asosidagi, abstraksiya asosidagi yoki tabiat hodisalari asosidagi metafora).
2. Metafora tarkibidagi ikki konseptual maydon (domain) aniqlanadi: Manba domeni (source domain) – tajribaga asoslangan, obrazli, sezgi orqali idrok etiladigan soha. Maqsad domeni (target domain) – abstrakt yoki tushunarsiz tushuncha. Bu ikki domen o'rtasidagi semantik ko'chish tahlil qilinadi.
3. Kognitiv asosi aniqlanadi va metafora orqali inson ongida qanday idrok modeli hosil bo'layotgani tushuntiriladi. Freym strukturasiidagi rol, atribut, holat kabi elementlar aniqlanadi.
4. Semantik tahlil (ma'no strukturasiini ochish): Metafora tarkibidagi asosiy ma'no komponentlari (semalar) ajratiladi. Metafora orqali hosil bo'layotgan ma'no kengayishi, ma'no ko'chishi, konnotativ ma'nolar

izohlanadi. Metaforaning leksik-semantik tarmog'i (bir soha doirasidagi o'xshash metaforalar guruhi) ko'rsatiladi.

5. Kognitiv mexanizmlarni tavsiflash orqali metaforaning asosiy kognitiv modeli aniqlanadi: insonlashtirish (personifikatsiya), obyektivlashtirish, fazoviyashtirish, konkretlashtirish yoki abstraktlashtirish. Metafora orqali qanday fikrlash mexanizmi (conceptual mapping) sodir bo'layotgani izohlanadi.

6. Olingan natijani umumlashtirib har bir metafora turi bo'yicha kognitiv va semantik xulosalar chiqariladi, ya'ni metafora inson tafakkurida qanday konseptual tizimni ifodalaydi, u qanday dunyoqarash yoki ijtimoiy qadriyatni aks ettiradi, til tizimida qanday yangi ma'no hosil qiladi kabi savollarning javobi beriladi.

Tadqiqotlarga tayangan holda metaforalarni kognitiv-semantik tahlil qilishda Evans Vyvyan, Green Melanie [Evans 2006] D. U. Ashurova, [Ashurova 2012: 200] O.R. Achilov [Achilov, 2024: 60] ishlaridan foydalanildi.

Dastlab shaxs freymi asosidagi metaforalarning kognitiv-semantik tahlilini amalga oshiramiz. Bilamizki, kognitiv yondashuvga ko'ra, metafora bu faqat til hodisasi emas, balki inson tafakkurining konseptual tizimidir. Ya'ni inson dunyoni metaforik tarzda idrok qiladi. Shaxs freymi asosidagi metaforalarda ham insonning o'zi yoki uning psixologik, ijtimoiy, jismoniy jihatlari boshqa konseptual sohalarga (tabiat, jamiyat, texnika, abstrakt tushunchalar) ko'chiriladi.

Shaxs freymi asosidagi metaforalar o'zbek adabiyotida, ayniqsa, shoirlar ijodida, juda keng qo'llanadi. Chunki shoirlar tabiat hodisalari, vaqt, sevgi, dard, o'lim kabi mavhum tushunchalarni inson sifatleri, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va xatti-harakatlari orqali ifodalaydilar. Xususan, Alisher Navoiy g'azallarida shaxs freymiga oid juda ko'plab namunalar topish mumkin.

Alisher Navoiy ijodidan shaxs freymiga oid ayrim misollar:

*Ko'ngluma hajr agar dard o'qi yog'dursa, ne tong,
Gar chiqarur esa paykonini dilxoh chekib.*

1. Bu baytda shaxs freymi asosidagi metafora mavjud bo'lib, "hajr", "dard" kabi abstrakt tushunchalar shaxs sifatida tasvirlanib, faol harakat qilmoqda,

ya'ni "o'q yog'dirmoq", "paykon chiqarmoq" kabi insonga xos harakatlarini amalga oshiryapti.

2. Ikki konseptual maydon: Manba domeni — inson yoki jangchi, o'q otuvchi shaxs (faol harakat qiluvchi subyekt). Maqsad domeni *hijron va dard* – hissiy, abstrakt tushunchalar.

3. Kognitiv asosi va freym strukturasi elementlari aniqlanadi. Bunda D. U. Ashurova [Ashurova 2012: 106]ning freym tahlil usulidan foydalanildi.

Dastlab, konseptual jihatdan muhim freymlarni ifodalovchi og'zaki signallar aniqlanadi. Baytda asosiy og'zaki signallar quyidagicha: *ko'ngil, hajr, dard, o'q, yog'dirmoq, paykon chiqarish, dilxoh*. Bu birliklar to'g'ridan to'g'ri holat tasviri emas, balki konseptual metaforalar orqali faoliyat yurituvchi semantik ko'rsatkichlardir.

Keyingi bosqichda freym semantikasi va assotsiativ-majoziy aloqalarni dekodlash amalga oshiriladi: Asosiy faol freym sifatida quyidagilar beriladi:

1. *Hajr – jarohat / zo'ravonlik* freymi bunda hajr (ayriliq) tajovuzkor kuch sifatida tasvirlanadi; dard o'qi yog'dirmoq bir martalik emas, uzluksiz ruhiy zarbani bildiradi.

2. *Ko'ngil – tana* freymi bunda ko'ngil jarohatlanadigan, azob sezadigan makon sifatida konseptualizatsiya qilinadi.

3. *Dard – qurol* freymi bunda dard o'q shaklida namoyon bo'ladi, paykon esa dardning eng chuqur, eng og'riqli nuqtasini bildiradi.

Keyingi bosqichda bilim tuzilmalarini faollashtirish amalga oshiriladi.

a) dunyo bilimlari (ensiklopedik bilimlar). O'q tanaga kiradi, og'riq keltiradi, chiqarilishi esa og'riqli, ammo shifo sari qadam bo'lishi mumkin. Ayriliq inson ruhiyatida uzoq davom etuvchi jarohat qoldiradi.

b) til bilimlari (kontekstual va taklif funksiyalari). "Ne tong" — ajablanmaslik, bu holatning kutilgan, tabiiy ekanini bildiradi. "dilxoh chekib" — azobni ongli ravishda qabul qilish, sabr bilan bardosh berish ma'nosini ifodalaydi. Bu yerda lirik qahramon passiv qurbon emas, balki ruhiy azobni anglab, uni ichki iroda bilan his qilayotgan subyekt sifatida aks ettiriladi.

Yakuniy bosqichda matnli ma'lumotlarni konseptuallashtirib, konseptual xulosa chiqariladi. Demak, bayt asosida ayriliq inson ko'ngliga uzluksiz dard o'qlarini yog'dirishi tabiiy, ammo oshiq bu azobni taqdiridan deb

biladi va hatto eng og‘riqli jarohatni ham ixtiyoriy ravishda qabul qilishga tayyor ekanligi anglashiladi.

Umumlashtirilgan konseptual model qilib, quyidagilarni keltirishimiz mumkin: ISHQ AZOBI — MUQARRAR; AZOB — JISMONIY JAROHAT; SABR — ONGLI TANLOV.

“Hajr” freymining o‘zbek tilida quyidagi tarmoqlari mazmunini tahlil qilish mumkin:

Holat sloti — ayriliqning emotsional holatini bildirib, og‘ir hajr, alamli hajr, iztirobli hajrni ifodalaydi;

Sabab sloti — ayriliqni yuzaga keltiruvchi omillarini visolning uzilishi, masofa, taqdirni ifodalaydi;

Subyekt sloti — ayriliqni boshdan kechiruvchi shaxsni, oshiq, yoridan judo bo‘lgan kishini ko‘rsatadi;

Ta’sir sloti — hajrning ruhiy oqibatlarini, dard, iztirob, ko‘ngil jarohatini anglatadi;

Davomiylik sloti — ayriliqning vaqt jihatidan cho‘zilishini, ya’ni uzoq va davomli hajrni bildiradi;

Munosabat sloti — subyektning hajrga bo‘lgan ichki pozitsiyasini, ya’ni sabr, chidam, visol umidini ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlil asosida xulosa qilsak, mazkur baytda freym tahlili orqali ayriliqning ruhiy zo‘ravonlik sifatida konseptualizatsiya qilinishi, ko‘ngilning esa jarohatlanadigan makon sifatida talqin etilishi anglashiladi. Dardning qurolga qiyoslanishi va paykon obrazining kiritilishi azobning kuchli ekanligini aks ettiradi. Shu bilan birga, “dilxoh chekib” birikmasi oshiqning ichki iroda va sabrga asoslangan pozitsiyasini ko‘rsatib, azobni passiv emas, balki ongli ravishda qabul qilayotgan oshiq holatda namoyon etadi.

4. Semantik tahlil. Metafora tarkibidagi asosiy semalar:

Hijron – ayriliq, uzoqlik, g‘am, dushmanlik semalari;

Dard o‘qi – jarohat yetkazish, jismoniy va ruhiy og‘riq;

Ko‘ngil – inson qalbi, his-tuyg‘ular markazi.

Ma’no kengayishi: “Hijron” oddiy holat emas, u dushman yoki jangchi obrazida tasvirlanib, “dard o‘qi” orqali azob beruvchi kuchga aylanadi. *Konnotativ ma’nosi esa* bu ifoda sevgining kuchli og‘rig‘i, sadoqat va iztirobni bildiradi.

Leksik-semantik tarmoq: o‘q otish, jarohat, dard, g‘am, hijron, ko‘ngil bular *ruhiy og‘riq – jismoniy jarohat* konseptual tarmog‘iga kiradi.

5. Bu metafora insonlashtirish (personifikatsiya) mexanizmiga asoslanadi. Abstrakt tuyg‘u hajron, dard inson faoliyatiga xos harakat o‘q otish bilan ifodalanyapti.

Konseptual mapping (ma‘no ko‘chish): *Ruhiy og‘riq – jang / hujum modeli*, ya‘ni inson ongida “sevgidan azob chekish” jarayoni “jangda jarohat olish” bilan tenglashtirilgan.

Til tizimida bu metafora sevgining iztiroblarini jismoniy og‘riq orqali ifodalash imkonini beradi. U o‘zbek poetik tafakkuridagi insonga oid hissiyotlarni obrazli jonlantirish an‘anasini aks ettiradi. Bu baytdagi metafora shaxs freymi asosidagi metafora bo‘lib, u abstrakt tuyg‘ularni (hijron, dard) inson faoliyati orqali tasvirlash mexanizmi asosida qurilgan. Shu orqali Alisher Navoiy inson ruhiy holatining intensivligini obrazli va ta‘sirchan shaklda ifodalagan.

Tentak shamol keltirdi -uf!

Yorning zulfidan atir.Uf!

[Usmon 2022: 92]

1. Bu parchada “shamol” insoniy sifat — “tentaklik” bilan ifodalangan. U harakat qiluvchi, his-tuyg‘uga ega, hatto sevgining xabarini olib keluvchi jonli shaxs sifatida tasvirlanyapti. Demak, bu insonlashtirish (personifikatsiya) asosidagi shaxs freymi metaforasidir.

2. Ikki konseptual domen: *Manba domeni* — inson (tentak, sho‘x, beparvo shaxs) – hissiyot, harakat, beqarorlik, sho‘xlik belgilariga ega; *Maqsad domeni* – shamol (tabiiy hodisa) – bevosita irodaga ega bo‘lmagan hodisa, ammo bu yerda insonga o‘xshatilib, hissiy shaxs sifatida konseptuallashtirilyapti.

Konseptual ko‘chim:

Shamol– inson (tentak, sho‘x, beparvo)

3. Kognitiv asos: Shoir ongida shamol nafaqat tabiat hodisasi, balki sevgining vositachisi sifatida idrok etilyapti. U lirik qahramonning hissiy holatini eslatuvchi yoki uni bezovta qiluvchi kuchga aylanadi. “Tentak shamol” iborasi — shamolning irodasiz, ammo beqaror, his-tuyg‘uga to‘la harakatini inson tabiatiga o‘xshatish orqali hosil bo‘lmoqda.

Freym strukturasi elementlar:

Rol: Shamol – faol subyekt, “tentak”, ya’ni beparvo inson.

Atribut: Sho‘xlik, samimiylik, hissiy beqarorlik.

Holat: Yorning zulfidan (sochidan) atir hidini olib keluvchi vosita.

Obyekt: Lirik qahramon va uning hissiy kechinmalari.

4. Semantik tahlil: Tentak shamol” — insoniy sifat “tentak” tabiat hodisasiga yuklatilgan. “Keltirdi” — irodali harakatni bildiruvchi fe’l shamolga shaxs harakati yuklatilgan. “Yorning zulfidan atir” — yorning sochi va uning hidi – bu estetik va emotsional timsollar, ishqni eslatuvchi obraz. “Uf!” — hissiy portlash, ichki to‘lqin, ruhiy ta’sir ifodasi.

Semantik ko‘chish: Tabiat hodisasi shamol — insoniy harakat va his-tuyg‘ularni bajaruvchi subyektga ko‘chmoqda.

Ma’no kengayishi: Shamol endi faqat havo oqimi emas, balki sevgining xabarchisi, yor esdaligini olib keluvchi obrazga aylanadi.

Konnotativ ma’nosi — sho‘xlik, beqarorlik, muhabbat dardi, sog‘inch, nozik hislar.

5. Kognitiv mexanizmlar:

Personifikatsiya: shamolga insoniy xususiyatlar yuklatilgan.

Obyektivlashtirish: hissiy holat tashqi tabiat hodisasi orqali ifodalangan.

Kognitiv model: “shamol – sho‘x inson” konsepti.

Bu modelda shamol lirik qahramon uchun hissiy aloqa vositasi, lekin “tentakligi” sababli ruhiy bezovtalik holati sifatida idrok etiladi.

Bu metafora shaxs freymi asosida tuzilgan bo‘lib, inson hissiyotlari bilan tabiat hodisasi o‘rtasida kuchli semantik ko‘chish mavjud. Kognitiv jihatdan shamol — insoniy sifatga ega his-tuyg‘u tashuvchisi; semantik jihatdan esa, u sevgining hidi va yorning xabarini olib keluvchi, ammo lirik qahramonni iztirobga soluvchi kuchdir. Til tizimida “shamol” konsepti shu tarzda insoniy emotsional fazilatlar bilan kengayib, sevgining ramziy tashuvchisiga aylanadi.

Qitmir qismat o‘yni deyinmi yo bir?

1. Metafora turi. Bu satrda “qismat” — insoniy faoliyat va maqsadga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Shoir qismatni “o‘yin qiluvchi”, “hiylakor”, “qitmir” (ayyor, makkor) deb ataydi. Bu esa insonlashtirish mexanizmini bildiradi. Demak, bu satrda qismat — inson (ayyor, hiylakor, o‘yinchi) shaklidagi shaxs freymi metaforasi mavjud.

2. Ikki konseptual domen:

Manba domeni – inson (qitmir, o‘yinchi, ayyor shaxs) — u maqsad qiladi, rejalashtiradi, kimnidir chalg‘itadi yoki sinaydi.

Maqsad domeni – qismat (taqdir) — aslida mavhum tushuncha, ammo bu yerda faol, ongli, o‘yin o‘ynovchi insonga o‘xshatilib tasvirlanyapti.

Konseptual ko‘chim: *qismat– inson* (ayyor, hiylakor o‘yinchi)

3. Kognitiv asos: Shoir ongida “qismat” abstrakt tushuncha sifatida emas, balki insoniy xatti-harakatga ega kuch sifatida idrok etiladi. Bu shoirning ruhiy holatini hayotdagi kutilmagan burilishlar, sinovlar, adolatga shubha kabi hissiyotlarini ifodalovchi kognitiv modellashtirishdir.

Freym strukturasi elementlar:

Rol: Qismat – faol subyekt, “qitmir” (ayyor, hiylakor).

Atribut: Ayyorlik, hiylakorlik.

Holat: Inson hayotida sinov, beqarorlik, kutilmagan o‘zgarishlar yaratish.

Obyekt: Lirik qahramon, uning hayoti, ruhiy holati.

4. Semantik tahlil: “Qitmir qismat” — bu badiiy ifoda asosiy metaforik tugunni tashkil qiladi. “Qismat”ga insoniy sifat (“qitmirlik”) yuklatilgan. “O‘yin” — bu so‘z ham bevosita inson faoliyatini bildiradi (1. Ko‘ngil ochish, dam olish, tarbiyalash maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg‘ulot).

Semantik ko‘chish: Abstrakt tushuncha (qismat) — insoniy faoliyat (o‘yin, hiyla, reja)

Ma‘no kengayishi: “Qismat” endi faqat taqdir emas, balki ayyor inson singari o‘yin qiluvchi, odamni sinovdan o‘tkazuvchi kuch ma‘nosini oladi.

Konnotativ ma‘nosi esa hayrat, norozilik, taqdir bilan ichki ziddiyat, falsafiy mushohada kabi ma‘nolarni bildiriyapti.

5. Kognitiv mexanizmlar: Personifikatsiya (insonlashtirish): “qismat” shaxsiy sifat va irodaga ega inson sifatida idrok qilinadi. Abstraktlashtirish va konkretlashtirish birligi: mavhum tushuncha (qismat) konkret shaxs obrazi orqali idrok etiladi.

Kognitiv model: “*qismat – hiylakor inson*” konsepti.

Bu modelda qismat inson hayotidagi kutilmagan sinovlarni ayyorona o‘yin sifatida namoyon qilmoqda.

Bu parchada ham metafora shaxs freymi asosida qurilgan bo‘lib, inson tafakkurida “qismat” konsepti insoniy fazilatlar bilan jonlantirilyapti. Kognitiv jihatdan, inson o‘z hayotidagi murakkabliklarni tashqi kuch “qismat” orqali ifodalamoqda. Semantik jihatdan esa “qismat” so‘zi “qitmir”, “o‘yin” bilan bog‘lanib, emotsional, falsafiy, tanqidiy ma‘no kasb etmoqda. Til tizimida “qismat” konsepti shu tarzda inson sifatida (ayyor, hiylakor, sinovchi) idrok etilib, shaxs freymi metaforalarining zamonaviy ko‘rinishini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Achilov O.R. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda ilgari surish vositalarining kognitiv-semantik xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. — Tashkent, 2024. — 60 b.

Ashurova D.U. Text linguistics. — Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. — 106 p.

Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.

Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. — New York: Basic Books, 2002.

Fillmore C. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. — Seoul: Hanshin, 1982. — P. 111—137.

Jo‘rayeva B., Jumayeva M. “Tuya” zoonimi ishtirok etgan maqollarda freymilar tadqiqi (tuyaning biologik holati asosida). — Tashkent, 2023. — 106 p.

Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. — Tashkent, 2016. — 144 p.

Koeva S. Extended Ontology of Noun Semantic Classes. Top-level ontological types in FrameNet. — 2024. — P. 12–45. — URL: https://dcl.bas.bg/wpcontent/uploads/2024/06/SemanticStudies2024_02_Koeva.pdf

Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2010.

Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.

Makhmaraimova Sh.T. O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): filol. fan. dokt. diss. avtoreferati (DSc). — Samarkand, 2020. — 28 b.

- Mamatov A.E. *Zamonaviy lingvistika*. — Tashkent, 2019. — 168 b.
- Talmy L. *Toward a Cognitive Semantics*. Vol. I–II. — Cambridge, MA: MIT Press, 2000.
- Ulug‘ova Sh.Sh. *Feministik badiiy matnda metafora faollashuvining kognitiv-stilistik jihatlari (“Jane Eyre” romani asosida): filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.* — Samarkand: SamDChTI, 2022. — 147 b.
- Usmon Azim. *Bir parcha osmon*. — Tashkent: Factor Books, 2022. — 92 b.
- Болдырев Н. Н. *Когнитивная семантика*. — Тамбов: Изд-во ТГУ, 2004. — 123 с.
- Величковский Б. М. *Современная когнитивная психология*. — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1982. — 336 с.
- Демьянков В. З. Термин «концепт» как элемент терминологической культуры // *Язык как материя смысла*. — М.: Азбуковник, 2007. — С. 606–622.
- Кубрякова Е. С. *Язык и знание: на пути получения знаний о языке*. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.
- Маслова В. А. *Лингвокультурология: учебник*. — М.: Академия, 2001. — 208 с.
- Минский М. *Фреймы для представления знаний*. — М., 1979. — 151 с.

References

- Achilov, O. R. (2024). *Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda ilgari surish vositalarining kognitiv-semantik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.* Tashkent.
- Ashurova, D. U. (2012). *Text linguistics. Tafakkur qanoti*.
- Azim, U. (2022). *Bir parcha osmon*. Factor Books.
- Boldyrev, N. N. (2004). *Kognitivnaya semantika* [Cognitive semantics]. Izd-vo TGU.
- Demyankov, V. Z. (2007). Termin “kontsept” kak element terminologicheskoy kultury [The term “concept” as an element of terminological culture]. In *Yazyk kak materiya smysla* [Language as the matter of meaning] (pp. 606–622). Azbukovnik.

- Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction*. Edinburgh University Press.
- Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The way we think: Conceptual blending and the mind's hidden complexities*. Basic Books.
- Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the morning calm* (pp. 111–137). Hanshin.
- Jo'rayeva, B., & Jumayeva, M. (2023). "Tuya" zoonimi ishtirok etgan maqollarda freymlar tadqiqi (tuyaning biologik holati asosida). Tashkent.
- Jo'rayeva, M. M. (2016). *Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari*. Tashkent.
- Koeva, S. (2024). Extended ontology of noun semantic classes: Top-level ontological types in FrameNet. *Semantic Studies*, 12–45. https://dcl.bas.bg/wpcontent/uploads/2024/06/SemanticStudies2024_02_Koeva.pdf
- Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction*. Oxford University Press.
- Kubryakova, E. S. (2004a). *Yazyk i znanie* [Language and knowledge]. Nauka.
- Kubryakova, E. S. (2004b). *Yazyk i znanie: Na puti polucheniya znaniy o yazyke* [Language and knowledge: Toward acquiring knowledge about language]. Yazyki slavyanskoy kultury.
- Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
- Makhmaraimova, Sh. T. (2020). *O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): Filol. fan. dokt. diss. avtoreferati (DSc)*. Samarkand.
- Mamatov, A. E. (2019). *Zamonaviy lingvistika*. Tashkent.
- Maslova, V. A. (2001). *Lingvokulturologiya: Uchebnik* [Linguoculturology: A textbook]. Akademiya.
- Minsky, M. (1979). *Freymy dlya predstavleniya znaniy* [Frames for representing knowledge]. Moscow.
- Talmy, L. (2000). *Toward a cognitive semantics* (Vols. 1–2). MIT Press.

Ulug'ova, Sh. Sh. (2022). *Feministik badiiy matnda metafora faollashuvining kognitiv-stilistik jihatlari ("Jane Eyre" romani asosida): Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.* SamDChTI.

Velichkovsky, B. M. (1982). *Sovremennaya kognitivnaya psikhologiya* [Modern cognitive psychology]. Izd-vo Mosk. un-ta.